

Dastlabki qarashda ko'zi ojizlarning tijorat kompaniyasida jiddiy ishlarni uddalayotganiga ishongisi kelmaydi kishining. Telefon orqali mijozlar zaruriyatini qondiruvchi mehnat jarayoni shunday tashkil etilganki, qo'ng'iroq qiluvchi o'ziga ko'zi ojiz xizmat ko'rsatganini hatto xayoliga keltirishi tugul o'z ko'zi bilan qarshisidagi turgan shaxsni uchratganida ham aqli shoshib qolishi turgan gap. Bunday xizmat doiralari ixtiyorida nutq sintezatori va telefon liniyasi ulangan quloqchinlar Ma'lumot bazasida ishlash imkonini yaratuvchi ekranga kirish dasturi joylashtirilgan kompyuterlar mavjud. Bu kabi zamonaviy ish joylari va qulay imkoniyatlarning 90 foizi G'arbning rivojlangan mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Achinarli tomoni shundaki, kompyuter texnikalari va dastur ta'minotlari bahosining anchayin yuqoriligi ko'zi ojizlarning bu afzal imkoniyatlaridan foydalanishlariga yo'l bermaydi. Shuning uchunmi, ko'plab zamondoshlarimizning kompyuter haqidagi tasavvurlari kambag'aldir. Achchiq haqiqat shuki, agar kompyuter texnologiyalari sohasidagi bilimlar rivojanmas ekan, ko'zi ojizlar umrbod o'tmish iskanjasida yashashga mahkum bo'ladilar. Shu bois ham ayni yo'nalishdagi taraqqiyot ko'zi ojizlar va qisman ko'ruvchilar manfaatlarini himoya qiladigan hamma tashkilotlar uchun yetarli ahamiyat kasb etishi lozim. Mana shu ezgu maqsadlarni ko'zlagan holda Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabida yuqorida qayd etilgan ko'rish qobiliyati bo'yicha imkoniyati cheklangan shaxslar uchun Kutubxonashunoslik yo'nalishi guruhi tashkil etilganligi fikrimizni yanada oydinlashtiradi. Bu yerda 2009 yili Shvetsariyadan taqdim etilgan "Gapiruvchi" kompyuterlar har jihatdan o'quvchi yoshlarga xizmat ko'rsatadi.

Yurtboshimizning 2006 yil 20 iyundagi 381-sonli "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga binoan olib borilayotgan ishlar ko'lami o'z samarasini berayotganligi quvonarli, albatta. Chunki mana 2021-2022 o'quv yilida "Kompyuter" yo'nalishida bitiruvchi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilar mustaqil hayotga yo'l oldilar va guruhning 50% foizi oliy ta'lim mussasasaga grant asosida o'qishga qabul qilindilar. Undan tashqari ular elektron kutubxonalarda faoliyat olib borishlariga muhim qadam qo'yilmoqda. Bu esa asrimiz talabi asosiga qurilayotgan va qurilajak ezgu maqsadlarning debochasi desak, ehtimol mubolag'a bo'lmas. "Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorda ham "Maxsus axborot-kutubxona muassasalari tomonidan axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish uchun nogironligi bo'lgan shaxslar to'liq qamrab olinishini ta'minlash maqsadida Respublikadagi 1,2 va 3-guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning ro'yxatini shakllantirish, ro'yxatni har uch yilda yangilab borish. Shakllantirilgan ro'yxat asosida 250 nafar ko'zi ojiz nogironligi bo'lgan shaxslar yashaydigan tuman(shahar)larda yangi ko'zi ojizlar kutubxonasi filiallari tashkil etish choralarini ko'rish" to'g'risida alohida band keltirilgan. Bundan tashqari, ushbu hujjatda Toshkent shahrida yangi ko'zi ojizlar kutubxonasini ochish to'g'risida ham alohida to'xtalib o'tilgan. Nogironligi bo'lgan

shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi hukumat qarori qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish hamda ko'zi ojizlar kutubxonalari faoliyatini rivojlantirish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturga binoan, maxsus axborot-kutubxona muassasalari tomonidan axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish uchun nogironligi bo'lgan shaxslar to'liq qamrab olinishi maqsadida Respublikadagi 1, 2 va 3-guruh nogironligi bo'lgan shaxslar ro'yxati shakllantiriladi hamda har uch yilda yangilab boriladi. Shakllantirilgan ro'yxat asosida 250 nafar ko'zi ojiz shaxslar yashaydigan tuman (shahar)larda yangi ko'zi ojizlar kutubxonasi filiallarini tashkil etish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, nogironligi bo'lgan kitobxonlar o'rtasida "Eng faol kitobxon", "Brayl yozuvida tez va ifodali o'quvchi kitobxon", "Eng yaxshi kitobxon oila" kabi ko'rik-tanlovlarni muntazam va bosqichma-bosqich o'tkazib borish, shuningdek, Markaziy ko'zi ojizlar kutubxonasida Brayl yozuvida adabiyotlar chop etish uchun tipografiya hamda audio kitoblar yaratish maqsadida ovoz yozish studiyasini ochish rejalashtirilgan.

Qaror bilan axborot-kutubxona muassasalariga kelishga imkoniyati yo'q foydalanuvchilar uchun Internet orqali audio kitoblardan foydalanish tizimini yo'lga qo'yish hamda ko'chma kutubxonalar tashkil etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Hozir mamlakatda kitobxonlikka jalb qilish bo'yicha juda ko'p ishlar qilinaypti. Lekin kitobga tashna ko'zi ojiz kitobxonlarchi?

O'zbekistonda ko'zi ojizlar kutubxonalari soni jami 123 taga yetdi. Bu kutubxonalarga o'tgan yil davomida Brayl yozuvidagi, 11 nomdagi 1700dan ortiq kitoblar tarqatilgan.

Respublika bo'yicha ko'zi ojizlar kutubxonalarining umumiy fondi 562 168ta kitobni, foydalanuvchilar esa 80 543 nafarni tashkil qiladi. Bu imkoniyatlar albatta Respublikamizdagi barcha ko'zi ojiz o'quvchilar uchun tegishlidir. Albatta keyingi yillarda imkoniyati cheklangan yoshlarimiz uchun bundanda ko'proq sharoyitlar yaratilsa ajabmas.

Barcha ta'lim muassasalarga 2022-2024 yilgi davlat dasturiga zamonaviy kompyuter kiritilishi va bu imkoniyatlar orqali zamonaviy maxsus dasturlarni qo'llanilishiga zamin bo'ladi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasi. 2022 yil 20-dekabr.
- 2.Sh.Mirziyoyev- Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.Toshkent -"O'zbekiston", 2017 ,4-bet
3. <https://baxtiyor.uz/jaws-dasturidan-keng-foydalanish/>
- 4.[https://nsportal.ru/download/#https://nsportal.ru/sites/default/files/2018/07/26/dokla](https://nsportal.ru/download/#https://nsportal.ru/sites/default/files/2018/07/26/dokla_d_obuchenie_ovz_na_urokah_informatiki_2017_dlya_interneta.doc)
[d_obuchenie_ovz_na_urokah_informatiki_2017_dlya_interneta.doc](https://nsportal.ru/sites/default/files/2018/07/26/dokla_d_obuchenie_ovz_na_urokah_informatiki_2017_dlya_interneta.doc)
5. “Ko’ngil ko’zi” – ko’zi ojizlar uchun ulkan imkoniyatlar (kun.uz)
6. Xalqaro ko’zi ojizlar kuni — «Daryo»
7. Xalqaro ko'zi ojizlar kuni — Respublika bolalar kutubxonasi (taqvim.uz)
8. O‘zbekistonda ko’zi ojiz kitobxonlar uchun qanday imkoniyatlar yaratilmoqda? - Xalq so'zi (xs.uz)

SHAXSIY KOMPYUTERNI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi

Maxsus fan o'qituvchisi

H.Tursunov

Informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchisi

Nurmatova Azima

Annotasiya: *Shaxsiy kompyuterni ish samaradorligini oshirish usullari xaqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Startup, Autorun, virus, SSD, degregmentatsiya, Win+R.*

Vaqt o'tishi bilan, juda ko'p sonli ma'lumotlar kompyuterda to'planadi, natijada qattiq disk tezligi kamayadi. Kompyuterda qancha vaqt ishlamayapti, uning ishlashi kamroq. Kompyuterning sekin ishlashi uchun biron bir mas'uliyat bo'lsa-da, ma'lumotlarni qayta ishlash va operatsion tizim yuklashini tezlashtirish uchun siz bir necha qadamlarni olishingiz mumkin.

Filmlarda kompyuterning super qobiliyatlarini ko'rib hayratdan yoqa ushlaysan kishi. Bir zumda sun'iy ongdan tortib radar, muloqot vositasiyu, uchishni nazorat qilish va muvofiqlashtiruvchi tizimlargacha go'yoki hammasi-birda hamohang ishlaydi, eng qizig'i uchgacha sanamasingizdan hammasi yonib, ishga shay turadi.

Bu qurilma ostida qaysi chip ishlayotganini bilmadimu, lekin mendan bitta buyurtma qabul qilib oling degingiz keladi. Real dunyo sharoitida esa, kompyuterlar ishga kirish uchun bir daqiqadan besh daqiqagacha vaqt oladi.

Shunday bo'lsa ham, bu degani kompyuteringiz albatta shunchalar sekin ishlashi kerak degani emas. Darhaqiqat, kompyuteringiz ishga tushish tezligini oshirishning bir nechta oson yo'llari mavjud. Harqalay endi kompyuteringiz yongunicha "kalendarim qatta edi" demasligingizni umid qilamiz.

1. Startdagi omillarni tartiblash.

Keling avval nega kompyuterlar sekin ishga tushishiga va vaqt o'tgani sari yanada sekin ishlay boshlashiga qiziqib ko'raylik.

Qachonki uskunangizni qayta yoqqaningizda, ma'lumotni sekin bo'lgan qattiq xotiradan – anchagina tezroq bo'lgan RAM(operativka) ga o'tkazish jarayoni ishga tushadi. Kompyuteringiz ko'chirishi kerak bo'lgan ma'lumot qancha ko'p bo'lsa, uning yonishiga shuncha ko'p vaqt ketadi. Bundan chiqdi, hamma gap ko'chirilishi lozim bo'lgan xabar miqdorini kamaytirishda.

Buning eng zo'r usuli kompyuteringiz ishlashi uchun juda zarur bo'lmagan dasturlarni to'xtatish demakdir. Siz o'rnatadigan ba'zi dasturlar o'zicha "men darrov ishga tushmasam bo'lmaydi" deb turib olishadi. Shunga o'xshash dasturlar bilan bechora kompyuteringizni qancha to'ldirsangiz, uning ishga tushish tezligi shuncha pasayib boraveradi.

Ushbu dasturlarni o'zboshimcha ishga tushishidan to'xtatish uchun quyida amalni bajaring: Start>>All Programs>>Startup. Bu papkada barcha dasturlar kompyuterin-giz ishga tushish paytida yoqiladi. Ular sizning manbalaringsizdan foydalanmasliklari uchun kerak bo'lmagan dastur belgilarini papkadan o'chirib tashlash mumkin.

E'tibor bering: Ushbu Startup papkasidagi dasturlarni o'chirish degani ularni kompyuteringizdan o'chirish degani emas. Shunday ekan, hattoki biron muhim narsani u yerdan o'chirib yuborsangiz ham, hech qanday tartibsizlikka yoki muammoga uchramaysiz.

Birlamchi ishga tushuvchi dasturlar joylashgan joy faqat shu yerdagina emas va qolganlarini Autorun kabi dasturlar orqali topsangiz bo'ladi.

Autorunlar har bir dastur nima ish qilishini aytib turadi va zaruriy dasturlar masalan, xavfsizlik dasturingizni o'chirib yubormaslik ehtiyotini ham ko'rib qo'ygan. Ishonavering kompyuteringiz tezroq ishga tushishi uchun ularni yaxshi bilsangiz arziydi.

2. Manbalar band etilishini sekinlashtiring.

Shunday dasturlar borki, siz ularni kompyuter ishga tushgan vaqtda yonishini lekin, yongan vaqtda ishga tushmasligini xohlashingiz mumkin.

Startup Delayer va TopWinPrio kabi dasturlar qolgan dasturlarni birdagina emas, balki birma bir ishga tushiradi. Bular har bir individual dasturni tez ishga tushirmaydi, lekin tizimingizga kelayotgan bosimni kamaytirib, uni sizga quloq soldiradi.

3. Viruslarni o'chirib tashlang.

Ishlashini aniq istamaydigan dasturlaringizdan biri bu virusdir. Virus nafaqat kompyuter yonishini pasaytiradi, balki ma'lumotingizni o'g'irlash, kompyuteringizni buzish va hokazolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xavfsizlik dasturlarini ishlatishni unutmang. Agar virus allaqachon tushib bo'lgan bo'lsa, Malwarebytes nomli dasturdan foydalanib ko'ring. Shunda ham foyda bermasa AVG Rescue CD variantini ishga soling.

4. SSD o'rnating.

Yuqorida aytganimizdek, kompyuter ishga tushishi sekinlashuvi ishlashi sekin bo'lgan qattiq xotiradan RAMga ko'chirilayotgan ma'lumotlar sababidan. Ma'lumotlarni tartiblash muammo hal etishning bir yo'li bo'lsa, boshqa yo'li tezligi yuqoriroq bo'lgan qattiq xotira sotib olish.

Ananaviy kompyuter qattiq diskidan farqli o'laroq, SSD (solid-state drive inglizcha) anchagina tezroq va ishonchliroq. Baxtga qarshi u hajmi ancha kichikroq va o'zi qimmatroq.

Agar yangi kompyuter harid qilayotgan bo'lsangiz, ko'plar hozirda SSDlarni qo'shimcha taklif sifatida kiritmoqda. Doimo band kishilar va o'ta yorqin tezlikka shinavandalar uchun o'ylab ko'rsa bo'ladigan taklif. Windows 8 yuritayotgan kompyuter SSD bilan bor yo'g'i 10 sekundda yoqiladi – ana endi deyarli ancha yuqori tezlik.

5. Yoki umuman o'chirmang.

Ha tushunamiz bu variant o'ta sodda, lekin kompyuteringizni ishdan bo'sh vaqtda o'chiring degan jiddiy sabab yo'qku.

Kompyuteringizni yoniq holda saqlash bu uning doim ishga shayligini bildiradi. Agar elektr quvvatini saqlamoqchi bo'lsangiz, "uyquga ketish (sleep)" yoki "gibernatsiya (hibernate)" holatini qo'llang.

Agarda Windows 8da ishlatayotgan bo'lsangiz, bu haqida qayg'urishingiz shart emas. Windows 8 har doim o'chirganingizda "uyquga ketish" uslubini ishga soladi. Shuning uchun ham u Windows 7 va Vista kompyuterlaridan tez yonish bo'yicha ustun turadi.

Shaxsiy kompyuterni ish samaradorligini oshirish usullari

1. Qattiq diskni tozalang. (Keraksiz dasturlarni olib tashlang. Foydalanilmagan barcha dasturlarni o'chiring). Masalan, yangiliklar yoki radio dasturlarini tinglash dasturlari odatda kerak emas, chunki ular eng yaxshi dasturlar yoki veb-brauzer kengaytmalariga o'zgartirishlari mumkin. Qoida tariqasida, Windows kompyuterlari ko'p sonli oldindan belgilangan dasturlar, kommunal xizmatlar va pluginlar bilan ta'minlangan, ulardan ba'zilari xavfsiz olib tashlanishi mumkin.

2. Kompyuterni qayta yoqing. Ta'riflangan usullar kompyuterning ishlashini ko'payishiga olib kelishi kerak.

- Masalan, o'z vaqtida, batareyani zaryadlang va kompyuterni muntazam ravishda o'chiring. Shunday qilib, siz kompyuterning xizmatini oshirasiz va uning ishlashini oshirasiz.

- Haftada kamida bir marta viruslar yoki zararli dasturlar tizimini skanerlang; Buni antivirus va boshqa tegishli dasturlar bilan qiling. Shunday qilib, siz viruslar va zararli dasturlarga protsessorni yuklashga ruxsat bermaysiz.

- Kompyuter yuqori ishlash rejimida ishlashiga ishonch hosil qiling. Agar energiya tejash rejimi faollashtirilgan bo'lsa (yoki shunga o'xshash), tizim kuchli dasturlar yoki o'yinlarni engillashtirmaydi. Ishlash rejimini bilish uchun, Belgis panelining o'ng tomonida batareyani batareyani bosing.

- Agar kompyuter ikki yoshdan oshsa, yangi operatsion tizimni o'rnatish juda qiyin (masalan, Windows 10). Qoida tariqasida, derazaning so'nggi versiyalari uch yoki to'rt yil oldin jihoz emas, balki eng ilg'or texnologiyalar uchun optimallashtirilgan.

- Garchi brauzer kompyuter komponenti bo'lmasa-da, uni keshni tozalang va veb-sahifalarini yuklab olish tezligini oshirish uchun cookie-fayllarni olib tashlang.

3. Ish stolini optimallashtirish.

Kompyuterni yuklab olishni tezlashtirish uchun stoldan iloji boricha ko'proq yorliqlarni olib tashlang. Kompyuter o'z hisob-kitoblariga vaqt sarflaydi. Kamroq yorliqlar - ish stolida kompyuter yoqilganda ish stoli yuklanadi.

Shundan so'ng, siz fon rasmini va ish stolida ekranni olib tashlashingiz kerak. Kompyuterni yuklash ularning hisob-kitoblariga vaqt sarflamaydi.

Keyin fon chizig'ini olib tashlang va uni qattiq rang bilan almashtiring.

Endi "Dizayn" sahifasiga o'ting "Dizayn" kategoriyasini toping (Windows XP yo'q). Va gadgetlarni olib tashlashni bosing. Sizda bor barcha gadgetlarni yo'q qiling. Aslida, siz ularga kerak emas, ularda taqdim etiladigan barcha ma'lumotlar va shuning uchun kompyuteringizda yoki Internetda mavjud.